

O‘ZBEK TILI TOPONIMIK TIZIMIDA ICHKI TRANSTOPONIMIZATSIYA

Sativoldiyeva Dildora
NamDU mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya:

Maqolada transonimizatsiya hodisasi orqali bir toponimik birlikni boshqa toponimik birlikka o‘tishi yoritildi va sabablari o‘rganildi.

Kalit so‘z: Toponim, transonimizatsiya, gidrooykonim, nekrooykonim, orooykonim, gidrotoponimlar.

Аннотация:

В статье рассмотрен переход одной топонимической единицы в другую через явление трансонимизации и изучены его причины.

Ключевые слова: Топоним, трансонимизация, гидрооним, некрооним, ороойконим, гидротопонимы

Annotation:

The article covered the transfer of one toponymic unit to another toponymic unit through the phenomenon of transonymization and studied its causes.

Key word: Toponym, transonymization, hydro-onym, necro-onym, orooykonim, hydrotoponyms.

Ichki transtoponimizatsiya aynan toponimik makroko‘lamda amal qiladi, bir toponimik birlikdan boshqa toponimik birlik hosil qilinadi. Ichki transtoponimizatsiya yondosh obyektlar orasida yuz beradi. Yangi obyekt uchun nom uzoqdan qidirilmaydi, yonidagi obyekt nomi nomlanayotgan obyektga nom qilib tanlanadi. Boshqacha aytganda, bu jarayon aynan bir makroko‘lam doirasida, ya’ni toponimlar makroko‘lami doirasida yuz beradi.

Terminologik lug‘atlarda ichki transotoponimizatsiyaga nisbatan *toponimik irradiatsiya* termini qo‘llanadi. *Toponimik irradiatsiya* – transonimizatsiyaning bir turi bo‘lib, muayyan geografik obyekt nomini unga yaqin joylashgan boshqa obyektlar nomiga ko‘chirilishi.

Toponimik irradiatsiya mahsuli bo‘lgan aholi manzillarini N.Oxunov “ko‘chma oykonimlar” sifatida tahlil qiladi. Uningcha, bir aholi manzili nomining boshqa aholi manziliga nom bo‘lib o‘tishi natijasida ko‘chma oykonimlar hosil bo‘ladi. Masalan, *Chodak* – Namangan viloyatining Pop tumanidagi qishloq nomi. *Codaklik* – Farg‘ona viloyati Oxunboboyev tumanidagi qishloq kabi. [1, 37]

T.Nafasovning talqinicha, bu hodisa xalqimiz yuksak ma’naviyatining lisoniy ifodasi. [3, 32]

Til va til sathlariga xos sistemaviylik onomastik tizimga, jumladan, toponimiyaga ham xos. Toponimlar, avvalo, makro va mikro toponimlarga, ular o'z ichida muayyan ko'lamlarga, ular, o'z navbatida, kichik guruhlariga bo'linadi, shu tarzda toponimlar ko'lamini tashkil etadi. Masalan, toponimlar makroko'lami o'z ichida *oykonimlar*, *urbanonimlar*, *oronimlar*, *agronimlar*, *gidronimlar*, *nekronimlar*, *ekklezionimlar* kabi mikroko'lamlarga bo'linadi.

Toponimik makro va mikroko'lamlar yaxlit bir sistemani tashkil etgani bois o'zaro bog'liq. Transonimizatsiya usulida bir toponimning boshqa toponim turiga o'tishida bu yorqin kuzatiladi. Bu jarayonda nomlardan nomlar tug'iladi, ya'ni bir toponimdan boshqa bir toponim hosil qilinadi. Ichki transtoponimizatsiya usulida ko'pincha makrotoponimlardan mikrotoponimlar, aksincha mikrotoponimlardan makrotoponimlar hosil qilinadi. shahar, qishloq nomlari (polisonim va komonimlar)dan boshqa toponim turlarini hosil qilish faol. T.Nafasovning fikricha, oykonimlar (aholi maskanlarining nomi), gidronimlar (suv obyektlarining nomi), oronimlar (yer yuza shakllarining nomlari)ning har biri o'z ichida va o'zaro bir-biriga o'tishi mumkin. Nom o'tishi tilning hozirgi holatigagina emas, uzoq va yaqin o'tmishiga ham xos. Olimning qayd etishicha, "*Naxshab*, *Kesh* – shahar nomi, o'tmishda viloyat ma'nosi va vazifasida ham qo'llangan. *Qarshi* – shahar nomi, hozir esa tuman, xo'jalik, mahalla, ko'cha, choyxona, badiiy asar nomi; kishi nomi. Nom o'tishi, ko'chishi nomshunoslikda, umuman, tilda keng tarqalgan lisoniy va nolisoniy hodisa. Nom o'tishi, ko'chishi, bir nomning turli onomastik maydon va guruhlarda qo'llanishi xalqning yuksak ma'naviy-madaniy saviyasini ko'rsatuvchi voqelik sanaladi". [3, 31]

Aholining yoppasiga ommaviy migratsiyasi (ko'chishi, boshqa hududlarga to'la yoki qisman o'tib o'rinishi) tufayli bir qishloq nomining bir tuman yoki boshqa tuman hududida takroran paydo bo'lishiga imkon yaratadi. Boshqa hududga ko'chib borgan aholi yangi yashov maskaniga ilgari yashagan qishlog'ining nomini qo'yib bir xil shakldagi ikkita nomni yaratayotgani ma'lum. Bu hodisa uzoq va yaqin o'tmishda ham bo'lgan. [3,13] Bu jarayonda ham transonimizatsiya hodisasi amal qiladi. Bir joy nomi, ko'proq, qishloq, mahalla nomlari o'z aholisi bilan boshqa joyga ko'chadi, ya'ni bir nomdan nom hosil qilinadi, takrorlanadi. Masalan, *Axsi* – To'raqo'rg'on, Uychi tumanlaridagi shaharcha. Tarixiy dalillarga asosan, To'raqo'rg'on tumanidagi shaharcha avval bunyod bo'lgan. 1620-yildagi Axsikentda yuz bergan zilziladan keyin xarobaga aylangan shahar aholisi hozirgi Uychi tumanidagi aholi manziliga ko'chib borgan, manzil qilgan. [4, 67-68] Shu boisdan bu qishloq ham aholining avvalgi yashash manziliga nisbat berib, *Axsi* deb atalgan. Keyinchalik qishloq shaharcha maqomini olgan.

Ichki transtoponimizatsiya asosida toponimlardan boshqa toponim turlari, ya'ni quyidagi toponimik birliklar hosil bo'ladi:

1. Gidrooykonimlar.
2. Nekrooykonimlar.
3. Orooykonimlar.

4. Gidrotoponimlar.

Gidrooykonimlar. Ichki transtoponimizatsiya doirasida bir obyekt nomidan ikkinchi obyekt nomi hosil qilinadi. Jumladan, suv obyektini nomi – gidronim qishloq, shaharcha, shahar nomi – oykonimga o'tishi ham mumkin.

Daryo, kanal, ko'l, soy, buloq, ariq, quduq, ko'priq, to'g'on kabi suv obyektini va inshootlarining atoqli nomlari – gidronimlar asosida yuzaga kelgan aholi turarjoylarning nomlari – gidrooykonimlardir. Gidrooykonimlar – gidrotoponimlarning bir turi.

Namangan viloyati gidrokomonimlari 50 dan ziyod: *Qorasuv*, *Buloq*, *Karanko'l* (Koson. t.), *Katta Toshbuloq*, *Kichik Toshbuloq*, *Oqbuloq*, *Sherbuloq*, *Qorako'l*, *Qorasuv* (Nam. t.), *Polvonko'l* (Nor. t.), *Jabborsoy* (Pop t.), *Bekbuloq*, *Sutbuloq* (Yangi. t.), *Baliqko'l* (Chor. t.) kabi. Mazkur gidrokomonimlarning har biri o'ziga xos lisoniy xususiyatlarga ega.

Nekrooykonimlar. Mozorlar, qabristonlar va mana shu tipdagi muqaddas qadamjoylarning atoqli nomlari nekronimlardir. [2, 11] Nekronimlardan hosil bo'lgan aholi manzillarining nomlari *nekrooykonimlar* deb yuritiladi. Masalan, *Bibiona* (Chust t.), *Daxiyaota* // *Daxyaota* (Uychi t.), *Langarbobo* (To'ra.t.), *Shomozor* (Pop t.), *Shohidon* (To'ra.t.), *Shahidmozor* (Nor.t.), *Sutlibuloq*// *Suttibuloq*//*Sutbuloq* (Yangi.t.), *Otakishi* (Yangi.t.), *Olchinmozor* (To'ra.t.), *Ko'kmozor* (Nor.t.), *Go'rmiron* (Koson.t.) kabi.

Bunday toponimlar Y.Ne'matova tomonidan Namangan viloyati oykonimiyasi doirasida tadqiq etilgan. [5, 67]

Orotoponimlar. Oronimlar asosida yuzaga kelgan toponimlar orotoponimlar deb ataladi. Odatda, orotoponimlarning yuzaga kelishining bir qator lisoniy va nolisoniy sabablari bor:

1. Orografik oyektt nomining keyinchalik o'sha yerda bunyod etilgan boshqa obyektlar nomiga o'tishi.

2. Joylarni nomlashda shu hududning tabiiy jihatdan xarakterlovchi orografik obyekt nomlarini motiv qilib olinganligi.[6, 43]

Namangan viloyati toponimiyasida 50 dan ziyod orotoponimlarni mavjud.

Transtoponimizatsiya asosida yuzaga kelgan viloyatga oid orotoponimlarni quyidagi turlari kuzatiladi:

Oroastionimlar. Astionimlar (grek.astyaos – shaharga oid) – shaharlarning atoqli nomlari, oykonimlarning bir turi. Oroastionimlar oronimik obyekt nomi bilan atalgan shahar nomlaridir. Masalan, *Oqtosh* (To'ra t. urbanonim, oronim) kabi.

Orokomonimlar. Komonim (grek. komo – qishloq + onyma – atoqli ot) – oykonimlarning bir turi, qishloq, ovul, shaharchalarning atoqli nomi. Demak, orokomonimlar orografik oyekt nomlar bilan atalgan qishloq, ovul, shaharcha nomlaridir. Masalan, *Qumtepa* (Uychi t.), *Qo'shtepa* (Pop t.), *Qoracho'qqi* (Chor.t.), *Qiziltepa* (Chust t.), *Qiziltov* (Nor.t.), *Qiziltosh*

(Chust t.), *Uzuntepa* (Ming. t.), *Yumoloqtepa* (Yangi.t.), *Toshtepa* (Yangi.t.), *Munchoqtepa* (Chust t.), *Mug'tepa* (Koson.t.), *Do'nartepa* (Koson.t.) kabi.

Gidrotoponimlar. Suv obyektlarining atoqli nomlari transonimizatsiyasi asosida yuzaga kelgan joy nomlari topogidronimlar hisoblanadi.

Gidronimik tizimdagi topogidronimlar quyidagi turlari bo'linadi:

1) oykonimlarga nisbat berib nomlangan suv obyekti nomlari:

a) shaharcha, shahar nomi – polisonimlar bilan atalgan suv obyektlari: *Namangansoy* (Nam. v. Nam. sh.), *Chustsoy* (Nam. v. Chust t.), *Chortoqsoy* (Nam. v. Chortoq t.) kabi;

b) qishloq nomlari – komonimlar bilan atalgan suv obyektlari: *Alixonsoy*, *Bo'lon* (ariq – Nam. v. Chortoq t.), *Buramatut* (Nam. v. Buramatut q.), *Guldirov arig'i* (Nam. v. Guldirov q.), *Ko'shanariq* (Nam. v. Guldirov q.), *Muchumariq* (Nam. v. Muchum q.) kabi;

v) mahalla va ko'cha nomi bilan atalgan suv obyektlari: *Chorvoq* (Nam. v. Uchqo'rg'on t.), *Ko'kjar* (Nam. v. Yangiqo'rg'on t.), *"Gulzor"* (Nam. v. Nam. t.) kabi;

2) oronimlarga nisbat berib nomlangan gidronimlar: *Kattatog'lik*, *Kichkinatog'lik* (jilg'a – Nam. v. Chust t. G'ova q.), *Qiziltepa* (zovur – Nam. v. Chust t.), *Oqtepa arig'i* (Nam. v. Yangiqo'rg'on t.) kabi.

Agiogidronimlar. Agiogidronimlar termini grekcha *agio* – “*muqaddas, ilohiy*” va gidronim – “*suv obyekti nomi*” ma'noli qismlaridan tarkib topgan. Demak, agiogidronimlar – diniy e'tiqod va tushunchalar, xalq urf-odatlarini hamda marosimlari asosida muqaddas, ilohiy deb qaralgan narsa, voqea-hodisalarning atoqli nomlari transonimizatsiyasi asosida hosil bo'lgan suv obyekti nomlaridir. Masalan, *Buvichaona bulog'i* (Chust t. Baymoq q.), *Saodatli buloq* (Nam. v. Chust t.), *G'oyibberdi bulog'I* (Nam. v. Chust t. G'ova q.), *Masjid hovuzi* (Nam. v. Uchqo'rg'on t. Qayqi q.) kabi.

Tilning sistemaviy tabiatidan kelib chiqib, onomastik tizimda toponimlar makroko'lam ham yaxlitligi bilan tavsiflanadi. Sistemaviylik mohiyatiga ko'ra tilning toponimlar makroko'lamiga mansub mikroko'lamlar o'zaro biri ikkinchiga bog'liq tarzda yashaydi, bu o'z navbatida, toponimik birliklarning birining ikkinchiga o'tishiga, biridan ikkinchisining hosil bo'lishiga yo'l ochadi, sabab bo'ladi. Shu jarayonda shahar nomidan viloyat, tuman, mahalla, ko'cha nomlari va boshqa toponimik birliklar hosil qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Охунов Н. Топонимлар ва уларнинг номланиш хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 1989.
2. Бегматов Э., Улуков Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006.
3. Нафасов Т. Қашқадарё қишлоқномаси. – Тошкент: Муҳаррир, 2009.
4. Жаббор, Абдулла. Наманган вилояти. – Наманган: “Наманган” нашриёти, 2011.

5. Неъматова Ю. Наманган вилояти ойконимларининг тарихий-лисоний тадқиқи: Филол. фан. фал. фан. док. диссер. – Фарғона, 2018.
6. Темиров Ш. Самарқанд вилояти оронимларининг тарихий-лисоний тадқиқи: Филол. фан. фалсафа док. ... диссер. – Самарқанд, 2021.